

**TABIIY XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDA AVARIYA
QUTQARUV VA BOSHQA KECHIKTIRIB BO'L MAYDIGAN ISHLARNI
TASHKILLASHTIRISH**

Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li

Namangan davlat universiteti

stajyor-o'qituvchisi

Tursunboyev Abdughalil Abdug'ani o'g'li

Namangan davlat universiteti

Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

+998 93 208-05-48

Annotatsiya: Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'l maydigan ishlar inson hayoti va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqinlari, ko'chki, bo'ron va boshqalar) natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni bartaraf etish, qurbonlarni qutqarish va zararni minimallashtirish asosiy vazifalardandir. Avariya-qutqaruv ishlarining samaradorligi maxsus texnikalar, malakali mutaxassislar, shuningdek, aholining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligi bilan bog'liq.

Аннотация: Аварийно-спасательные и другие неотложные работы в чрезвычайных ситуациях природного характера являются важными мерами, направленными на обеспечение жизни и безопасности человека. В этих процессах основными задачами являются устранение опасностей, возникающих в результате стихийных бедствий (землетрясений, наводнений, оползней, ураганов и т. д.), спасение жертв и минимизация ущерба. Эффективность аварийно-спасательных работ обусловлена наличием специальной техники, квалифицированных специалистов, а также подготовленностью населения к чрезвычайным ситуациям.

Annotation: accident-rescue and other non-deferred work in emergency situations of natural nature are important measures aimed at ensuring human life and safety. In these processes, eliminating the risks caused by natural disasters (earthquakes, floods, landslides, hurricanes, etc.), rescuing victims, and minimizing damage are among the main tasks. The effectiveness of accident-rescue work is associated with special techniques, qualified specialists, as well as the readiness of the population for emergency situations.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar, avariya-qutqaruv ishlari, qutqaruv operatsiyalari, tabiiy ofatga tayyorgarlik, jabrlanganlarga yordam, qutqaruv texnikasi, favqulodda holat rejasi.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, стихийные бедствия, аварийно-спасательные работы, спасательные работы, подготовка к стихийному бедствию, помочь пострадавшим, спасательные средства, план действий в чрезвычайных ситуациях.

Key words: emergency situations, natural disasters, emergency rescue operations, rescue operations, preparation for a natural disaster, assistance to victims, rescue equipment, emergency plan.

Kirish. Tabiiy ofatlar, inson hayoti va mol-mulkiga katta xavf tug‘diruvchi hodisalardir. Bu turdagи favqulodda vaziyatlar, masalan, zilzila, suv toshqinlari, yer ko‘chishi, bo‘ron va boshqa tabiiy ofatlar paytida avariya-qutqaruv ishlarini samarali tashkil etish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Favqulodda vaziyatlarda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar orasida avariya-qutqaruv ishlari eng asosiy vazifalardan biridir. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi inson hayotini saqlab qolish, ularning xavfsizligini ta’minlash va zarar ko‘rgan hududlarda vaziyatni tezda barqarorlashtirishdan iborat.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarni bajarish uchun tinch vaqtida iqtisodiyot obyekti boshlig‘ining buyrug‘i bilan guruuhlar tuzilgan bo‘lishi kerak. Har qaysi tarmoq boshchiligidа guruuhlar, favqulodda vaziyat yuz berganda, o‘z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarini olib borishga kerakli kuchlar va vositalar aniqlanadi. Mahlliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko‘ra tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko‘rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko‘lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlariga bo‘linadi.

Favqulodda vaziyat - bu muayyan hududda o‘zidan so‘ng odamlarning qurbon bo‘lishi, odamlar sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar - hududlar chegaralari, ularni bartaraf etish ishlari, rahbarlari tomonidan Favqulodda vaziyatlar oqibatlari (shikastlovchi omillar) tarqalishiga qarab belgilanadi.

«Hayot faoliyati xavfsizligi» yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassislar quyidagi ishlarni amalga oshira olishlari kerak. Bular avariya holatida o‘z vaqtida harakat qilish, oqibatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarni tezkor amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarda insonlarning hayotini, sog‘ligini saqlab qolish, zararini

kamaytirish vazifalari kiradi. Ushbu ishlarni malakali mutaxassislar amalga oshirsa avariya-qutqaruv ishlari (AQI)ni muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

FVda soha mutaxassislari quyidagi ishlarni amalga oshirishlari zarur boladi:

- ✓ favqulodda vaziyatga tezkor kirishish, uni cheklash va oqibatlarini bartaraf etishda samarali harakatlarga shay turish;
- ✓ razvedka o'tkazish, vaziyatni baholash va yuqori tashkilotlarga tezkor ma'lumot yuborish;
- ✓ jarohatlanganlarni, moddiy boyliklarni qidirib topish, qidiruv-qutqaruv ishlarni o'tkazish va shu kabilar;

Qutqarish ishlarning mazmuni quyidagicha:

- ✓ tuzilm alarning harakat yo'nalishlari va ish uchastkalarini qidirish;
- ✓ tadbirlami amalga oshirish uchastkalarida va ularga yonginning kengayishini oldini olish, uni o'chirish za'rur.

Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishini murkkab sharoitlarda vayronalarda, kuchli yong'inlarda, yer qimirlaganda, radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zararlangan hududlarda amalga oshiriladi.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarni bajarish uchun tinch vaqtida iqtisodiyot obyekti boshlig'ining buyrugi bilan guruuhlar tuzilgan boiish i kerak. Har qaysi tarmoq boshchiligidagi guruuhlar, favquloddagagi vaziyat yuz berganda, o'z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarni olib borishga kerakli kuchlar va vositalar aniqlanadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

- ✓ favqulodda vaziyatlar chogida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqadilar;
- ✓ aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda almashinilishini, shuningdek, favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro'y beriganligi to'g'risida aholi o'z vaqtida voqif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;
- ✓ moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini inoliyalashni amalga oshiradilar;
- ✓ idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;
- ✓ favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha korxona muassasa va tashkilotlar kuchlari ham da vositalarining shay holda turishi ustidan nazoratni am alga oshiradilar;
- ✓ avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bolgan hududlarda qutqaruv ishlari va kechiktirib boim aydigan boshqa ishlami amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv

kuchlari (shu jumladan tezkor harakat bo'linmalari) va maxsus tuzilmalarning doimo shay bo'lib turishini tashkil etadilar;

✓ avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuningdek, bunday ishlar o'tkazilishi chog'ida jamoat tartibi saqlanishiga ko'maklashadilar.

Tabiiy xususiyatlari favqulodda vaziyatlarda yanada samarali avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borish uchun quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar zarur:

1. Tabiiy resurslar va joylashuvga oid ma'lumotlar

✓ *Yer tuzilishi va tuproq holati*: Yer ko'chkisi yoki zilzila xavfi yuqori bo'lgan joylarda.

✓ *Suv manbalari*: Ichimlik suvi mavjudligi va sifati.

✓ *O'simlik va hayvonot dunyosi*: Zarurat tug'ilsa ovqatlanish uchun yoki qutqaruvga xalaqit beruvchi xavfli hayvonlar haqida ma'lumot.

2. Odamlarning ehtiyojlari

✓ Ovqatlanish va ichimlik suvi zaxiralari: Voqeа joyidagi va evakuatsiya punktlaridagi mavjudlik holati.

✓ Sanitariya holati: Kasalliklarning oldini olish uchun sharoit va uskunalar.

✓ Psixologik yordam ehtiyoji: Jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash uchun mutaxassislar.

3. Voqeа joyining texnik holati

✓ Binolar va infratuzilmaning zararlanish darajasi: Qaysi binolar xavfli, qaysi biri boshipana sifatida ishlatilishi mumkin.

✓ Transport vositalari holati: Voqeа joyiga yetib borish uchun yo'llar, ko'priklar va boshqa transport infratuzilmasi haqida ma'lumot.

4. Tibbiy yordam resurslari

✓ Tibbiy xodimlar va dori-darmon: Yetarli resurs mavjudligi yoki qo'shimcha yordam kerakligi.

✓ Kasalliklar xavfi: Epidemiologik xavf yoki ekologik zaharlanish haqida ma'lumot.

5. Xavfsizlik va xavf omillari

✓ Qo'shimcha xavf omillari: Yong'inlar, portlashlar, zaharli moddalarning tarqalish xavfi.

✓ Hududdagi boshqa xavflar: Daryolarning suv sathi ko'tarilishi, tog' ko'chkilarining ehtimoli.

6. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar

✓ Hududdagi iqtisodiy holat: Jabrlanganlarning moliyaviy imkoniyatlari.

✓ Aholi o'rtaqidagi ijtimoiy munosabatlar: O'zaro yordamni tashkil etish imkoniyatlari.

7. Texnologik va texnik yordam

- ✓ Qutqaruv texnikalari va texnologiyalar: Zarar ko‘rganlarni aniqlash, o‘lchash va boshqarish vositalari.
- ✓ Dronlar va sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari: Qutqaruvchilar uchun qo‘shimcha kuzatuv va monitoring imkoniyatlari.

8. Favqulodda vaziyatning davomiyligi va qayta tiklanish

- ✓ Qayta tiklash rejasi: Zarar ko‘rgan hududlarni tiklash uchun resurslar va vaqt talablari.
- ✓ Uzoq muddatli xavf omillari: Suv va havo sifatining o‘zgarishi, ijtimoiy hayotga ta’sir.

9. Axborot tarqatish va koordinatsiya

- ✓ Axborot tarqatish kanallari: Aholiga zaruriy ma’lumotlarni yetkazish tizimi.
- ✓ Hamkor tashkilotlar va qo‘shimcha yordamchilar: Qutqaruv xizmatlari, xalqaro yordam tashkilotlari.

Qutqarish va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan ishlar quyidagilardan iborat:

1. Odamlarni qutqarish va shikastlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish.
2. Yonginlar, falokatlarning kengayishiga yo’l qo‘ymaslik va kommunal energetika hamda texnologiya tarmoqlaridagi avariyalarni bartaraf etish.
3. Iqtisodiyot obyektlarida bundan keyingi boiadigan tiklash ishlarini o‘tkazish uchun sharoitlar yaratish va boshqalar. Avariya-qutqaruv ishlari va tabiiy ofatlarning kelib chiqish sabablarini, nazariy-amaliy masalalarni, shuningdek, avariyalardan keyin tiklash ishlarini olib borish jarayonini oiganishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlari ko‘p yo‘nalishni qamrab olgan va chuqur rejalashtirilgan harakatlar talab qiladi. Bu jarayonda aniqlik, tezkorlik va hamkorlik asosiy prinsiplar hisoblanadi. Qutqaruvchilarning yuqori malakasi va zarur ma’lumotlarga ega bo‘lishi, shuningdek, resurslarni samarali boshqarish natijasida inson hayotini saqlab qolish va tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha muvaffaqiyatga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turagalov , T. D. ., & Nasriddinov , N. J. M. o’g’li. (2022). ZAMONAVIY YONG’IN O’CHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARNING AHAMIYATI VA MUAMMOLARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 705–709. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>
2. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o’g’li. (2022). SANOAT KORXONA3.LARIDAN CHIQAYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari , 1 (3), 144 149. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi

3. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li, Qodirov Diyorbek Bo'ltak o'g'li, MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH "Hodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi" jild. 3-son 29 (2023-yil) <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/9270>
4. Azizbek Egamberdiev. Effect of freezing temperature and heat flow in sublimation dryer on drying efficiency. UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. Выпуск: 9(126) сентябрь 2024 г. Часть 5. г. Москва. С. 61-64. URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/18260>
5. Azizbek Egamberdiev. Study of energy and resource efficiency of sublimation drying of fruits and vegetables. UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. Выпуск: 3(108) мартъ 2023 г. Часть 5. г. Москва. С. 15-18. URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15156>
6. Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li, Tursunboyev Abduhalil Abdug'ani o'g'li (2024). FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQAROLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING ASOSIY TAMOYILLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 20(4), 156–160. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/5177>